TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 6-son

VOLUME 4 / ISSUE 6 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.6.

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

"Yurisprudensiya" – "Юриспруденция" – "Jurisprudence" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'y-xatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

**Nashr bo'yicha mas'ul:**
O. Choriyev

**Muharrirlar:**
Sh. Jahonov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov, M. Sharifova, Sh. Beknazarova

**Musahhih:**
S. Rasulova

**Texnik muharrir:**
U. Sapayev

**Dizayner:**
D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** jurisprudence.tsul.uz
**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1387

**Nashriyot litsenziyasi**
№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 24.12.2024-yilda
bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog'i: 7,4
Adadi: 100. Buyurtma: № 156.

**Bosmaxona litsenziyasi**
29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko'chasi, 37.

**© Toshkent davlat yuridik universiteti**

**BOSH MUHARRIR**

*B. Xodjayev* – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI**

*J. Allayorov* – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**MAS'UL MUHARRIR**

*N. Ramazonov* – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI**

*J. Blum* – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSH)

*M. Vishovatiy* – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

*A. Hoshimxonov* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*M. Axmedshayeva* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*X. Xayitov* – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*I. To'raboyev* – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*S. Xolboyev* – O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)

*N. Raxmonkulova* – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*Z. Esanova* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*J. Ne'matov* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*M. Kurbanov* – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*R. Kuchkarov* – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция – Yurisprudensiya – Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

**Ответственный за выпуск:**
О. Чориев

**Редакторы:**
Ш. Жахонов, Е. Ярмолик, Э. Мустафаев, К. Абдувалиева, Й. Махмудов, М. Шарифова, Ш. Бекназарова

**Корректор:**
С. Расулова

**Технический редактор:**
У. Сапаев

**Дизайнер:**
Д. Ражапов

**Адрес редакции:**
100047. Город Ташкент, улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Веб-сайт:** jurisprudence.tsul.uz
**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Подписной индекс:** 1387

**Издательская лицензия**
от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию 24.12.2024.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 5. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 156.

**Лицензия типографии**
от 29.11.2023 № 174626

Отпечатано в типографии Ташкентского государственного юридического университета.
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

**© Ташкентский государственный юридический университет**

## ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

*Б. Ходжаев* – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

## ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

*Ж. Аллаёров* – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

## ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

*Н. Рамазонов* – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

## ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

*Дж. Блум* – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

*М. Вишоватый* – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

*А. Хошимхонов* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*М. Ахмедшаева* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*Х. Хаитов* – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

*И. Турабоев* – доктор философии по юридическим наукам, и. о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*С. Холбоев* – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

*Н. Рахмонкулова* – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

*З. Эсанова* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*Ж. Нематов* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*М. Курбанов* – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

*Р. Кучкаров* – кандидат филологических наук, и. о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

"Yurisprudensiya" – "Юриспруденция" – "Jurisprudence" legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

**Publication Officer:**
O. Choriev

**Editors:**
Sh. Jakhonov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev, K. Abduvalieva, Y. Makhmudov, M. Sharifova, Sh. Beknazarova

**Proofreader:**
S. Rasulova

**Technical editor:**
U. Sapaev

**Designer:**
D. Rajapov

**Editorial office address::**
100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

**Website:** jurisprudence.tsul.uz
**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Subscription index:** 1387.

**Publishing license**
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 24.12.2024.
Paper size: A4.
Cond.p.f: 7,44.
Units: 100. Order: № 156.

**Printing house license**
№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgokh street, 37.

**© Tashkent State University of Law**

**CHIEF EDITOR**
*B. Xodjaev* – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

**DEPUTY EDITOR**
*J. Allayorov* – Head of the Scientific Department of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

**EXECUTIVE EDITOR**
*N. Ramazonov* – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD**
*J. Blum* – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

*M. Vishovatiy* – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

*A. Khoshimxonov* – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*M. Axmedshaeva* – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*X. Xayitov* – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*I. Turaboev* – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

*S. Xolboev* – Associate Professor of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

*N. Raxmonkulova* – Associate Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*Z. Esanova* – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*J. Ne'matov* – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*M. Kurbanov* – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

*R. Kuchkarov* – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

8 **TULTEYEV ILYAS TAVASOVICH**
Huquqiy faoliyatdagi huquqiy texnologiya: nazariy va amaliy jihatlar
17 **HAYITOV SHERZOD RAXMATULLAYEVICH**
Subyektiv huquq va huquqiy manfaat: nazariy-huquqiy tahlil
28 **SADIKOV MAKSUDBOY ABDULAJONOVICH**
Forsayt tahlilning huquq ijodkorligidagi oʻrni

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

38 **SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**
Raqamli obyektlarning vorislik va er-xotin mulkiy huquqiy munosabatlari predmeti sifatidagi huquqiy rejimi: kvalifikatsiya va bo'lish muammolari
47 **LAPASOV ASLIDDIN TOʻLQIN OʻGʻLI**
Ijtimoiy munosabatlarning virtuallashuvi jarayonida mualliflik huquqi konsepsiyasi genezisi va evolyutsiyasi

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

57 **ABDUALIMOVA MADINA SHUXRATOVNA**
Oʻzbekiston Respublikasida yerga nisbatan xususiy mulk huquqi toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarining rivojlanish tarixi
69 **SADIKOVA DILAFRUZ RADJABOVNA**
Oʻzbekiston va Qozogʻistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning huquqiy masalalari
79 **XALMOʻMINOV SHAVKAT DJUMAYEVICH**
Iqlim oʻzgarishi sharoitida ekologik xavfsizlikni huquqiy ta'minlashning ilmiy-nazariy jihatlari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

89 **NIYOZOVA SALOMAT SAPAROVNA**
Jinsiy jinoyatlarning obyektiv belgilariga doir ilmiy yondashuvlar
104 **XAYDAROV SHUXRATJON DJUMAYEVICH**
Kasb yuzasidan oʻz vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatini kvalifikatsiya qilish va oʻxshash jinoyatlardan farqlash masalalari

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

114 **INOYATOVA SOHIBA FAZILOVNA, SAIDAXMEDOVA MUAZZAMXON ANVARXONOVNA**
Ayollarni zulm va zoʻravonlikdan himoya qilish va ularning jamiyatdagi rolini oshirish

123 **RUZINAZAROV SHUHRAT NURALIYEVICH**
Yuridik ta'limning jonkuyar fidoyisi

# СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

8 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЬЯС ТАВАСОВИЧ**
Правовая технология в юридической деятельности: теоретические и практические аспекты

17 **ХАЙИТОВ ШЕРЗОД РАХМАТУЛЛАЕВИЧ**
Субъективное право и правовой интерес: теоретико-правовой анализ

28 **САДИКОВ МАКСУДБОЙ АБДУЛАЖОНОВИЧ**
Роль форсайт-анализа в правотворчестве

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

38 **ШАЙМАРДАНОВА ДИЛАФРУЗ ДИЛМУРАТОВНА**
Правовой режим цифровых объектов как предмет наследственных и супружеских имущественных правоотношений: проблемы квалификации и раздела

47 **ЛАПАСОВ АСЛИДДИН ТУЛКИН УГЛИ**
Генезис и эволюция понятия авторского права в процессе виртуализации общественных отношений

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

57 **АБДУАЛИМОВА МАДИНА ШУХРАТОВНА**
История развития законодательства о праве частной собственности на землю в Республике Узбекистан

69 **САДИКОВА ДИЛАФРУЗ РАДЖАБОВНА**
Правовые аспекты использования возобновляемых источников энергии в Узбекистане и Казахстане

79 **ХАЛМУМИНОВ ШАВКАТ ДЖУМАЕВИЧ**
Научно-теоретические аспекты правового обеспечения экологической безопасности в условиях изменения климата

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

89 **НИЁЗОВА САЛОМАТ САПАРОВНА**
Научные подходы к объективным признакам сексуальных преступлений

104 **ХАЙДАРОВ ШУХРАТЖОН ДЖУМАЕВИЧ**
Вопросы квалификации и дифференциации преступления ненадлежащего исполнения профессиональных обязанностей от аналогичных преступлений

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

114 **ИНОЯТОВА СОХИБА ФАЗИЛОВНА, САИДАХМЕДОВА МУАЗЗАМХОН АНВАРХОНОВНА**
Защита женщин от притеснения и насилия и повышение их роли в обществе

123 **РУЗИНАЗАРОВ ШУҲРАТ НУРАЛИЕВИЧ**
Убеждённый сторонник юридического образования

# CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

8 **TULTEEV ILYAS TAVASOVICH**
Legal technology in legal activity: theoretical and practical aspects

17 **KHAYITOV SHERZOD RAKHMATULLAEVICH**
Subjective rights and legal interest: theoretical and legal analysis

28 **SADIKOV MAKSUDBOY ABDULAJONOVICH**
The role of foresight analysis in law making

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

38 **SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**
The legal regime of digital objects as the subject of legal relations of inheritance and matrimonial property relations: issues of qualification and division

47 **LAPASOV ASLIDDIN TULKIN UGLI**
The genesis and evolution of the concept of copyright in the process of the virtualization of social relations

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

57 **ABDUALIMOVA MADINA SHUKHRATOVNA**
The history of the development of legislation on the right of private property on land in the Republic of Uzbekistan

69 **SADIKOVA DILAFRUZ RADJABOVNA**
Legal aspects of the use of renewable energy sources in Uzbekistan and Kazakhstan

79 **KHALMUMINOV SHAVKAT DJUMAYEVICH**
Scientific and theoretical aspects of legal ensurance of environmental security in conditions of climate change

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

89 **NIYOZOVA SALOMAT SAPAROVNA**
Scientific approaches to the objective signs of sexual crimes

104 **KHAYDAROV SHUKHRATJON JUMAYEVICH**
Issues of qualifying the crime of ineffective performance of professional duties and differentiation from similar crimes

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

114 **INOYATOVA SOHIBA FAZILOVNA, SAIDAKHMEDOVA MUAZZAMKHON ANVARKHONOVNA**
Protecting women from harassment and violence and enhancing their role in society

123 **RUZINAZAROV SHUHRAT NURALIYEVICH**
A staunch devotee of legal education

Kelib tushgan / Получено / Received: 13.11.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 20.12.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2024

**DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.6./CGCZ6901**
**UDC: 343.235.2(045)(575.1)**

# JINSIY JINOYATLARNING OBYEKTIV BELGILARIGA DOIR ILMIY YONDASHUVLAR

**Niyozova Salomat Saparovna,**
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga
qarshi kurashish kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0003-3970-2985
e-mail: salomat.niyozova@mail.ru

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada jinsiy jinoyatlarning obyektiv belgilariga doir ilmiy yondashuvlar tahlil etilgan. Bundan tashqari, maqolada jinsiy jinoyatlar shaxsga qarshi qaratilgan, jinsiy erkinlik va daxlsizlikka tajovuz qiluvchi, jamiyat uchun eng xavfli jinoyatlardan biri ekanligi hamda uning ijtimoiy xavfliligi borasidagi olimlarning fikrlari keltirilgan. Muallif maqolani tahlil qilish jarayonida jinsiy jinoyatlarning obyekti sifatida shaxsning normal jinsiy rivojlanishini tan oluvchi huquqshunoslar fikrini ham o'rganib, o'z fikr-mulohazalarini bildirgan. Shuningdek, muallif mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 118- va 119-moddalarini bir-biridan farqlovchi belgilari va jihatlariga ham to'xtalib o'tgan. Shu bilan bir qatorda, maqolada shaxsning jinsiy rivojlanishiga tajovuz qilish nafaqat jismoniy oqibat, balki birinchi navbatda, ruhiy va ijtimoiy xavf tug'dirishi bilan bog'liq ekanligi tahlil etilgan. Maqolada jinsiy jinoyatni sodir etishda, jinoyat sodir etayotgan shaxs jabrlanuvchining qarshiligini sindirish uchun hamda hali mavjud bo'lmagan qarshilikning oldini olish maqsadida qilingan harakatlar bilan bog'liq zo'rlik turlari ham o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *jazo, javobgarlik, jabrlanuvchi, jinoyat, jinsiy, jinsiy daxlsizlik, jinoyat-huquqiy jihatlari, zo'ravonlik, tajovuz, nomusga tegish*

## НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ К ОБЪЕКТИВНЫМ ПРИЗНАКАМ СЕКСУАЛЬНЫХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ

**Ниёзова Саломат Сапаровна,**
доктор юридических наук,
профессор кафедры «Уголовное право,
криминология и противодействие коррупции»
Ташкентского государственного
юридического университета

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются научные подходы к объективным признакам сексуальных преступлений. Кроме того, в статье приводятся мнения учёных о том, что преступления на сексуальной почве, направленные против личности и посягающие на сексуальную свободу и неприкосновенность, являются одними из самых опасных преступлений для общества, а также автором даны соответствующие предложения и рекомендации о его*

*общественной опасност. Автор в процессе анализа изучает мнения юристов, признающих нормальное половое развитие личности объектом сексуальных преступлений, и высказывает свои мнения и суждения. Также в данной статье автор остановился на признаках и аспектах, отличающих статьи 118 и 119 Уголовного кодекса Республики Узбекистан. Наряду с этим, в статье также анализируется, что посягательство на половое развитие человека связано не только с физическими последствиями, но и прежде всего с психическими и социальными рисками, и автор выражает свою точку зрения. В статье также рассматриваются виды насилия, связанные с совершением сексуального преступления, действия, совершаемые преступником, с целью сломить сопротивление жертвы, а также с целью предотвращения сопротивления, которое ещё не существует.*

***Ключевые слова:*** *наказание, ответственность, потерпевший, преступление, пол, половая неприкосновенность, уголовно-правовые аспекты, насилие, агрессия, изнасилование*

## SCIENTIFIC APPROACHES TO THE OBJECTIVE SIGNS OF SEXUAL CRIMES

**Niyozova Salomat Saparovna,**
Professor of the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law

***Abstract.*** *This article analyzes scientific approaches to the objective signs of sexual crimes. In addition, the article presents the opinions of scientists on the fact that sexual crimes are directed against the individual, encroaching on sexual freedom and inviolability, one of the most dangerous crimes for society, and its social danger, and provides relevant suggestions and recommendations. In the process of analyzing the article, the author also examines the opinions of lawyers who recognize the normal sexual development of a person as the object of sexual crimes and gives their opinions and judgments. In this article, the author also touched upon the characteristics and aspects that distinguish between Articles 118 and 119 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. At the same time, the article analyzes and expresses the author's opinion that aggression against a person's sexual development is linked not only to physical consequences, but also, first and foremost, to psychological and social danger. The article also examines types of violence in the commission of a sexual crime and actions taken by the perpetrator to break the victim's resistance and to prevent resistance that does not yet exist.*

***Keywords:*** *punishment, liability, victim, crime, sexual, sexual immunity, criminal law aspects, violence, assault, rape*

**KIRISH**

Bugungi kunda jinsiy jinoyatlarning jinoyat-huquqiy jihatlari va ularning viktimligining oldini olish masalasi dolzarb boʻlib qolmoqda. Mazkur sohadagi jinoyatlarning holati, tuzilishi, sabablari hamda jinoyatchi va jabrlanuvchi shaxslarining tahlil etilishi juda muhimdir. Shaxsga qarshi jinoyatlarning xavflilik darajasi yuqoriligi uchun ushbu masala Jinoyat kodeksi Maxsus qismining "Shaxsga qarshi jinoyatlar" boʻlimidan oʻrin olgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mazkur boʻlimda shaxsga qarshi jinoyatlarning bir necha turi uchun javobgarlik koʻzda tutilgan boʻlib, ular bevosita obyekti boʻyicha guruhlarga ajratilgan. Shular qatoriga jinsiy jinoyatlar ham kiradi.

Darhaqiqat, shaxsga qarshi qaratilgan, jinsiy erkinlik va daxlsizlikka tajovuz qiluvchi jinsiy jinoyatlar jamiyat uchun eng xavfli jinoyatlardan biridir. Jinsiy jinoyatlarni sodir etish hollari mamlakatimizning ba'zi hududlarida kamayib borayotgan boʻlsa-da, boshqa hududlarda ortib bormoqda. Bu esa mazkur

jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortish mexanizmini yanada takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish zarurligini koʻrsatadi.

Mazkur ilmiy maqolada jinsiy jinoyatlarga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy me'yorlari, bu borada qonunchilikda mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish choralari, qonunchilikni amaliyotga tatbiq etish boʻyicha taklif va mulohazalar keng yoritib berilgan.

Ushbu jinoyatlar har doim shaxsga qarshi jinoyatlardan biri sifatida baholangan va shuning uchun ham uni sodir etgan jinoyatchilar boshqalarga nisbatan qattiq jazolangan. Chunki jinsiy aloqa insonlar hayotida muhim oʻrin tutadi, inson madaniyati, odob-axloqiga ta'sir koʻrsatadi.

Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar ichida xavflilaridan biri hisoblanadi. Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarni shartli tarzda ikki guruhga boʻlish mumkin: jabrlanuvchining xohishiga qarshi sodir etiladigan va tomonlarning roziligi asosida sodir etiladigan. Nomusga tegish jinoyati jabrlanuvchining xohishiga qarshi sodir etiladigan jinsiy jinoyatlardan biridir.

**Material va metodlar**

Tadqiqot davomida jinsiy jinoyatlarning obyektiv belgilariga doir ilmiy yondashuvlar ilmiy va nazariy jihatdan oʻrganildi.

Mazkur tahlil jarayonida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, qonunchilikni rivojlantirish hamda amaliyotni yaxshilash yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi. Ushbu tadqiqot ishida tahlil qilish, funksional yondashuv, mantiqiylik, tizimlilik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, statistik, sotsiologik soʻrovlar oʻtkazish kabi metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalari**

Har qanday jinoyatning obyekti uning tarkibini tashkil etadigan elementlardan biridir. Har qanday jinoyat u yoki bu obyektga tajovuz qilish bilan sodir etiladi. Shuning uchun ham amaliyot va nazariyada jinoyat obyektini toʻgʻri belgilash jinoyatning huquqiy (yuridik) mohiyatini aniqlash, eng asosiysi, jinoyat obyektiga yetkazilgan zararga qarab, aniq tasnif etish imkonini beradi.

Insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsiz ekanligi va hech narsa ularni kamsitish uchun asos boʻlishi mumkin emasligi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (26-moddasi) belgilangan va kafolatlangan shaxsiy huquq va erkinliklarning bir qismidir.

Jinsiy erkinlik umumiy qoidaga asosan, voyaga yetgan shaxsning hayotiy faoliyatiga kiradi. Har bir voyaga yetgan kishi jinsiy erkinligini oʻz xohishiga koʻra mustaqil tarzda hal qiladi. Har bir shaxsning jinsiy erkinligi (tugʻilgandan to vafot etguncha) har qanday holatda davlat tomonidan himoya qilinadi. Jinsiy daxlsizlikning buzilishi har doim jinsiy erkinlikni ham buzadi.

Jinoyat kodeksi Maxsus qismining "Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar"ni belgilovchi toʻrtinchi bobi jinsiy sohadagi zoʻrlik harakatlari va jinsiy tartibni qoʻpol tarzda buzuvchi qilmishlar uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 118- va 119-moddalari matni 2023-yil 11-apreldagi "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida"gi OʻRQ–829-sonli Qonuniga asosan, yangi tahrirda belgilandi. Jumladan, "Nomusga tegish, ya'ni zoʻrlik ishlatib, qoʻrqitib yoki jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib, jinsiy aloqa qilish, – besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Nomusga tegish:

a) ikki yoki bir necha shaxsga nisbatan;

b) takroran, xavfli retsidivist tomonidan yoki ilgari ushbu kodeksning 119-, 121-, 128- va (yoki) 129-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;

v) bir guruh shaxslar tomonidan;

g) oʻldirish bilan qoʻrqitib;

d) nogironlik belgisiga ega ekanligi aybdorga ayon boʻlgan shaxsga nisbatan sodir etilgan boʻlsa, – sakkiz yildan oʻn yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Nomusga tegish:

a) oʻn sakkiz yoshga toʻlmagan shaxsga nisbatan;

b) yaqin qarindoshga, sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir roʻzgʻor asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoxud umumiy farzandga ega boʻlgan shaxsga nisbatan;

v) jabrlanuvchini tarbiyalash, oʻqitish va (yoki) unga gʻamxoʻrlik qilish majburiyatlarini bajarayotgan shaxs tomonidan, shuningdek, jabrlanuvchiga qarab turish majburiyatlari qonun bilan zimmasiga yuklatilgan taʼlim, tarbiya, davolash yoki boshqa muassasaning xodimi tomonidan;

g) ommaviy tartibsizliklar ishtirokchisi tomonidan;

d) oʻta xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan boʻlsa;

e) ogʻir oqibatlarga olib kelgan boʻlsa, – oʻn yildan oʻn besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Oʻn toʻrt yoshga toʻlmagan shaxsning nomusiga tegish, – oʻn besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”, deb berildi.

Oʻzbekiston Respublikasi JKning 118-, 119-, 121-moddalarida jinoyat obyekti toʻgʻridan toʻgʻri koʻrsatilmagan. Faqat tajovuzning xususiyati, subyekt qasdining mazmuni, jabrlanuvchining ziyon yetkazilayotgan manfaatlari xususiyatini tahlil qilib, jinoyat obyekti toʻgʻrisida xulosa chiqarish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, jinsiy jinoyatlarning obyekti jinsiy erkinlik hamda jinsiy daxlsizlik hisoblanadi. Jinoyat kodeksining 118-moddasi 3-qismi “a” bandi, yaʼni shaxsning 18 yoshga toʻlmaganligi aybdorga ayon boʻlgan holda sodir etilishi, 118-, 119-moddalari toʻrtinchi qismida nazarda tutilgan oʻn toʻrt yoshga toʻlmaganligi aybdorga ayon boʻlgan shaxsning nomusiga tegishda jinoyatning qoʻshimcha obyekti voyaga yetmagan shaxslarning jismoniy va axloqiy jihatdan normal rivojlanishi hisoblanadi.

Barcha shaxslar jinsi va yoshidan qatʼi nazar, jinsiy daxlsizlik va jinsiy erkinlik huquqiga ega va jinoyat qonunchiligi bilan bir xilda himoya qilinadi.

Jinoyat kodeksining 118-, 119-, 121-moddalarida koʻrsatilgan jinoyat obyekti voyaga yetgan shaxsning jinsiy erkinligi, shuningdek, voyaga yetgan shaxsning kim bilan jinsiy aloqa qilish masalasini mustaqil hal qilish huquqidir.

16 yoshga toʻlmagan shaxsning nomusiga tegish jinoyatida obyekt uning jinsiy daxlsizligi va voyaga yetmaganlarning normal jismoniy rivojlanishi hamda ularning sogʻlom tarbiyasi hisoblanadi.

Ayrim olimlar voyaga yetgan shaxsning nomusiga tegish jinoyatida bevosita obyekt – bu uning jinsiy erkinligidir [1], degan fikrni ilgari sursa, boshqa olimlar tajovuz obyekti jinsiy daxlsizlik hisoblanadi, deb taʼkidlaydi [2].

K.P. Krasnyuk baʼzida jinsiy xavfsizlik shaxsning jinsiy munosabatlar doirasidagi hayot uchun muhim manfaatlarining himoyalanganligi hisoblanishini taʼkidlagan [3]. U mazkur jinoyatning obyekti sifatida shaxsning normal jinsiy rivojlanishini tan oluvchi huquqshunoslarning fikriga oʻz qarashini bildirib, bu munosabatlar katta yoshdagilarga nisbatan tajovuz qilishganda ham buzilishini aytib oʻtadi. A.N. Ignatel, Y.M. Yakovlev, M.A. Xlensov, B.V. Danielbeklar bu holatda jinoyatning obyekti sifatida voyaga yetmagan shaxsning normal jinsiy rivojlanishini eʼtirof etishgan.

M.H. Rustamboyev nomusga tegish jinoyatining bevosita obyekti tushunchasiga quyidagicha taʼrif beradi: “... oʻz xohishiga koʻra, jinsiy sherigini tanlash huquqini taʼminlovchi ijtimoiy munosabatlar, shuningdek, 16 yoshga toʻlmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligi hisoblanadi” [4].

F. Taxirov nomusga tegish jinoyatining bevosita obyekti sifatida jabrlanuvchining jinsiy erkinligi, ya’ni alohida olingan har bir holda ayrim shaxslarga o‘ziga nisbatan jinsiy ehtiyojning qondirilishiga ruxsat berish yoki ruxsat bermaslik erkinligini ta’kidlaydi [5].

M.H. Rustamboyev va F. Taxirovning yuqorida aytib o‘tgan fikrlari o‘rinlidir. Chunki shaxs ayrim vaziyatlarda muayyan shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga moyil bo‘lishi, ayrim vaziyatlarda esa jinsiy aloqa qilishga ruxsat bermasligi mumkin. Bunday holatda bevosita jinsiy erkinlikka zarar yetkaziladi.

Demak, jinsiy erkinlik 16 yoshga to‘lgan shaxs o‘z jinsiy hayotini mustaqil, shuningdek, jinsiy ehtiyojlarini kim bilan va qanday shaklda qondirishni belgilashga bo‘lgan huquqidir.

Bu shuni anglatadiki, jinsiy erkinlikni buzish hatto yaqin kishilariga nisbatan ham (o‘rtog‘iga, xotiniga) muayyan vaziyatlarda jinoiy javobgarlikni istisno qilmaydi. Yuqorida aytib o‘tilganlar voyaga yetganlarning huquqlari buzilgan hollarga ham taalluqlidir.

16 yoshga to‘lmagan shaxslar jinsiy erkinlikka ega bo‘lishi mumkin emas. Ularning organizmi fiziologik jihatdan jinsiy hayot kechirishga tayyor emas, chunki ularning jinsiy va psixologik rivojlanishi hali to‘liq shakllanmagan. 16 yoshga to‘lmagan shaxslarning tafakkur darajasi yetarlicha rivojlanmaganligi sababli jinsiy aloqaga kirishish ularning keyingi rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday yoshdagi shaxslar bilan jinsiy aloqaga kirishish, bir tomondan, ularning normal jinsiy rivojlanishiga zarar yetkazadi, ikkinchi tomondan esa jinsiy munosabatlar borasida noto‘g‘ri ijtimoiy-axloqiy tushunchalar shakllanishiga olib keladi.

Bu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, jinoyat qonuni har qanday holatda ham 16 yoshga to‘lmagan shaxs bilan, uning roziligi bor yoki yo‘qligidan qat’i nazar, jinsiy aloqaga kirishishni taqiqlaydi, bu taqiq buzilgan hollarda jinoiy javobgarlik belgilanadi.

Shu bilan birga, qonunda jinsiy aloqaga kirishi man etilgan shaxslar jabrlanuvchi bo‘lgan hollarda jinsiy zo‘ravonlik o‘ta xavfli hisoblanadi. Aynan shu hollarda jinsiy zo‘ravonlik jabrlanuvchi shaxsning jinsiy daxlsizligi, normal jismoniy, ruhiy va axloqiy rivojlanishiga tahdid soladi. Bunda asosiy obyekt voyaga yetmagan shaxsning normal jismoniy va ruhiy rivojlanishi hamda shakllanishidir, degan fikr ham ilgari surilgan [6].

Jinsiy daxlsizlik normal jinsiy rivojlanishning muhim shartlaridan biri bo‘lib, bu daxlsizlik jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadi. Shaxsning jinsiy rivojlanishiga tajovuz qilish nafaqat jismoniy oqibatlarga olib keladi, balki, eng avvalo, ruhiy va ijtimoiy xavf tug‘diradi. Shuning uchun jinsiy daxlsizlikdan faqat voyaga yetgan shaxslar emas, balki voyaga yetmagan shaxslar ham himoya qilinishi kerak. Bunday shaxsning jinsiy daxlsizligini qo‘riqlash uning huquqlari va rivojlanishi uchun zarurdir.

Jinsiy jinoyatlarning obyektiv tomoniga to‘xtaladigan bo‘lsak, jinoyat qonunining 118-, 119-moddalarida ko‘rsatilgan jinoyatlar zo‘rlik ishlatib, qo‘rqitib yoxud jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib sodir etiladi. Bular Jinoyat kodeksining 118-, 119- moddalari 1-qismi har biri o‘zining bevosita obyektiga ega bo‘lgan uchta mustaqil tarkibidan iborat: voyaga yetgan ayol yoki erkakka zo‘rlik ishlatib; voyaga yetgan ayol yoki erkakni qo‘rqitib; voyaga yetgan ayol yoki erkakning ojizligidan foydalanib sodir etiladi.

Yuqorida qayd etilgan har bir tarkib o‘z obyektiga ega bo‘lsa ham, ularga tegishli umumiy xususiyatlar bu tarkiblarni bitta modda orqali ifodalashga imkon beradi (O‘zbekiston Respublikasi JKning 118-, 119-moddalari).

**Tadqiqot natijalari tahlili**

Darhaqiqat, zo‘rlik – jinoyat qonunchiligida tez-tez uchraydigan jinoyat tarkibining zaruriy elementlaridan biridir. Jinsiy jinoyatni sodir etishda ishlatiladigan zo‘rlik ikki xil bo‘lishi mumkin: *birinchisida* jinoyat so-

dir etayotgan shaxs jabrlanuvchining qarshiligini sindirish uchun zoʻrlik ishlatadi. Bu, odatda, jinsiy aloqa qilish niyatida qilingan harakatlarga nisbatan jabrlanuvchi tomonidan koʻrsatilgan jiddiy qarshilikni sindirish uchun ishlatiladi; *ikkinchisida* esa hali mavjud boʻlmagan qarshilikning oldini olish maqsadida ishlatiladigan zoʻrlik tushuniladi.

Ushbu jinoyatlarni sodir etishda aybdor tomonidan qoʻllanadigan zoʻrlik jismoniy yoki ruhiy boʻlishi mumkin.

*Jismoniy zoʻrlik* – uning qoʻllanishi natijasida jabrlanuvchining hech qanday qarshilik koʻrsatishiga imkon qoldirmaydigan har qanday jismoniy harakat; jinoiy-huquqiy nuqtayi nazardan jabrlanuvchining organizmiga nisbatan uning xohishiga qarshi tarzda amalga oshiriladigan huquqqa xilof harakat.

Jinsiy jinoyatlarni sodir etishning bu usuli keng tarqalgan boʻlib, deyarli 70 %ni tashkil qiladi.

Jismoniy zoʻrlik darajasi jabrlanuvchining sogʻligʻiga yetkazilgan yoki yetkazilishi mumkin boʻlgan zarar xarakteri bilan aniqlanadi.

Zoʻrlikning birmuncha yengil shakllari jabrlanuvchining tana daxlsizligiga zoʻrlik ishlatish va uni harakat qilish hamda qarshilik koʻrsata olishidan mahrum qilishda (bogʻlab qoʻyish, qoʻl bilan ushlab turish) ifodalanadi.

Biroq jinsiy jinoyatlarda zoʻrlikning samaraliroq boshqa shakllari ham uchraydi: sogʻliqqa yengil shikast yetkazish, doʻpposlash va boshqalar.

Sud amaliyotida bunga doir misollar juda koʻp. 2019-yil 14-oktabrda Angren shahar sudida fuqaro A.ga nisbatan JKning 118-moddasi bilan qoʻyilgan ayblov yuzasidan jinoyat ishi koʻrib chiqildi. Fuqaro A. tanishi fuqaro K.ning uyiga mehmonga keladi va ozgina spirtli ichimlik isteʼmol qilgandan keyin K.ning nomusiga tegish maqsadida uning kiyimlarini yechmoqchi boʻladi. K. unga qarshilik koʻrsata boshlagach, unga nisbatan zoʻrlik ishlata boshlaydi. K.ning bosh qismiga uradi. K. unga nisbatan qarshilik koʻrsata olmasligini anglab yetgach, qochib borib, oshxona pichogʻini oladi va A.ning yelkasiga tan jarohati yetkazadi. A. oʻzining niyatini amalga oshira olmay uydan chiqib ketadi. Sud A.ning harakatlarini JKning 25-moddasi orqali 118-moddaning 1-qismi bilan kvalifikatsiya qiladi.

Zoʻrlikning xarakteri, usuli va intensivligi shunday boʻlishi kerakki, u jabrlanuvchining soxta qarshiligini emas, balki haqiqiy qarshiligini sindirishi lozim.

Yuqorida koʻrsatilganlardan tashqari, boshqa holatlar ham ayolni ojiz ahvolga solib qoʻyuvchi holat sifatida qaralishi lozim. Bu holatda qoʻllangan usulda ikki belgi mavjud boʻlishi kerak: jismoniy zoʻrlik (jabrlanuvchiga uning xohishiga qarshi taʼsir etish) jabrlanuvchini qarshilik koʻrsata olmaydigan holatga solib qoʻyish uchun ishlatilishi va bu holatdan foydalangan holda, nomusga tegish jinoyatini sodir etgan boʻlishi lozim.

Jinoyat kodeksining 118-, 119-moddalari 1-qismi sogʻliqqa yengil (109-modda) yoki oʻrtacha ogʻir (105-modda) shikast yetkazish, qiynash (110-modda) kabi harakatlarni nazarda tutadi. Yuqorida qayd etilganlardan koʻrinib turibdiki, jismoniy zoʻrlik jabrlanuvchining tanasiga taʼsir etishda ifodalanadi.

Jinsiy jinoyatlarda jabrlanuvchi zoʻrlik ishlatuvchining harakatlariga nisbatan qarshilik koʻrsatishi lozim. U tomonidan koʻrsatiladigan qarshilik haqiqiy boʻlishi zarur. Amaliyotda yuzaki qarshilikni haqiqiysidan ajratish mushkul.

F. Taxirovning taʼkidlashicha, “ayol tomonidan koʻrsatilgan qarshilikni haqiqiy deb tan olish uchun ayolning vujudga kelgan sharoitda jinsiy aloqa qilishning oldini olish maqsadida oʻzi mumkin deb hisoblagan barcha imkoniyatlarni ishga solganligining oʻzi kifoya” [7].

Ayrim hollarda jabrlanuvchi kelib chiqishi mumkin boʻlgan oqibatning oldini olish maqsadida (unga ogʻir tan jarohati yetkazilishi mumkinligidan qoʻrqishi) yoki zoʻrlik ishlatuvchining harakatlarini notoʻgʻri baholab,

qarshilik ko‘rsatmasligi mumkin. Bunday hollarda ham jinsiy jinoyatlarning tarkibi mavjud bo‘ladi. Agar ayol bosqinchilik hujumiga yo‘liqqan bo‘lsa va qandaydir daqiqada qarshilik ko‘rsatishni davom ettirish befoydaligini anglab, o‘zini “ixtiyoriy ravishda topshirsa”, bunda zo‘rlik tarkibi istisno qilinmaydi.

Bundan tashqari, jinoyatchi tomonidan ishlatiladigan zo‘rlik ruhiy bo‘lishi ham mumkin. Ruhiy zo‘rlik jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslarga nisbatan jismoniy ta’sir o‘tkazish yoki boshqa ruhiy jihatdan ta’sir etish usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Ruhiy zo‘rlik va ruhiy ta’sir etish o‘rtasida qanday farq bor degan savol tug‘iladi.

Ruhiy ta’sir keng ma’noda insonning aqliy, hissiy va irodaviy sohalariga ta’sir ko‘rsatishdir. Masalan, nomusga tegish jinoyatida jinsiy aloqa qilishga ko‘ndirish, iltimoslar, turli va’dalar berish, jabrlanuvchida jinsiy hissiyot uyg‘otish, shaxsning irodasiga u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatish mumkin. Biroq uning qarshiligini yenga olmaydigan, jiddiy xususiyatga ega bo‘lmagan po‘pisalar ham kiradi. Bu holatlarning barchasida zo‘rlik mavjud emas, chunki jabrlanuvchi tanlash erkinligini saqlab qoladi va jinsiy aloqaga kirishishda uning irodasi namoyon bo‘ladi, garchi bu irodaga ta’sir ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, biroq tamomila sindirilmagan bo‘ladi, ya’ni ruhiy zo‘rlik alomatlari bo‘lmaydi.

Ruhiy zo‘rlik jabrlanuvchini uning sog‘lig‘iga shikast yetkazish yoki farzandlari, qarindoshlari yoxud boshqalarga, hatto unga notanish bo‘lgan shaxslarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish bilan qo‘rqitish yoki uning jinsiy aloqa qilishga rozi bo‘lishiga sabab bo‘ladigan boshqa ruhiy ta’sirlar orqali amalga oshiriladi. Ruhiy zo‘rlik jabrlanuvchi tomonidan real xavf sifatida qabul qilingan bo‘lib, uni qarshilik ko‘rsata olmaydigan holatga solib qo‘yishi mumkin.

Ruhiy zo‘rlik jinsiy jinoyatlar obyektiv tomonining tarkibiy qismi bo‘lib, Jinoyat kodeksining 112-moddasi bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilishni talab qilmaydi. Ammo mazkur harakatni sodir etgan javobgar nomusga tegish jinoyatini o‘ldirish bilan qo‘rqitib sodir etgan bo‘lsa, bu holda qilmish Jinoyat kodeksining 118-moddasi 1-qismi bilan emas, balki 118-moddaning 2-qismi “g” bandi bilan (nomusga tegish jinoyatini o‘ldirish bilan qo‘rqitib sodir etish) kvalifikatsiya qilinadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bunda ruhiy zo‘rlik va uni amalga oshirish imkoniyati jabrlanuvchini shunday ahvolga soladiki, u aybdorning intilishlariga qarshilik ko‘rsata olmay qoladi. Ruhiy zo‘rlik qilmish kvalifikatsiyasiga ta’sir qilmaydigan har xil usullar bilan sodir etiladi. Masalan, og‘zaki aytilishi mumkin yoki xat bilan, telefon orqali, imo-ishoralar bilan, qurol yoki boshqa narsalarni ko‘rsatish bilan amalga oshirilishi mumkin.

Bundan tashqari, bunday zo‘rlik bevosita jabrlanuvchiga aytilishi yoki uchinchi shaxslar orqali yetkazilishi mumkin. Ruhiy zo‘rlikning zaruriy sharti uning muayyan shaxsga qaratilganligidir.

M.H. Rustamboyevning fikricha, ruhiy zo‘rlik – bu jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy zo‘rlik ishlatish, mol-mulkini nobud qilish yoki zarar yetkazish va jabrlanuvchi sir saqlanishini istagan ma’lumotlarni oshkor etish va hokazo bilan qo‘rqitishdir [8]. Ruhiy tazyiqning bir turi sifatida shaxsning yaqinlariga nisbatan zo‘ravonlik qo‘llanishi mumkin. Ular o‘g‘irlanishi, jinsiy zo‘rlanishi yoki jismoniy tazyiqqa uchrashi ham mumkin [9].

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ–561-sonli Qonunining 3-moddasida zo‘rlikning jinsiy, jismoniy, iqtisodiy va ruhiy turlari ajratib berilgan. Jumladan:

*jinsiy zo‘ravonlik* – xotin-qizlarga nisbatan ularning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlik va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shakli, shuningdek, zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish

orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash;

*jismoniy zo'ravonlik* – xotin-qizlarga nisbatan og'irligi turli darajada bo'lgan tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko'rsatmaslik, zo'ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazishning o'zga choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali xotin-qizlarning hayoti, sog'lig'i, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zo'ravonlik shakli;

*ruhiy zo'ravonlik* – xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'ni, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek, ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo'ravonlik shakli, shu jumladan, reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchida o'z xavfsizligi uchun xavotir uyg'otgan, o'zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog'lig'iga zarar yetkazgan harakat (harakatsizlik) [10].

Zo'rlikning turlari, ya'ni jismoniy va ruhiy zo'rlik bir-biridan sodir etish usul va vositalariga ko'ra farq qiladi. Xususan, jismoniy zo'rlikda tan jarohati yetkaziladi yoki insonning xulqi, harakat erkinligi cheklanadi. Bu uning organizmida organik yoki funksional o'zgarishlarga sabab bo'lishi ham mumkin. Ruhiy zo'rlik esa bevosita inson ruhiyatiga ta'sir etadi va ruhiy jarohat yetkazadi yoki uning xohish-irodasi erkinligini yengadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, jismoniy zo'rlik insonning boshqa shaxs tomonidan ma'lum bir harakatni bajarishi yoki bajarmasligiga nisbatan ixtiyorini cheklash, ya'ni uning xulq-atvori va xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyatidan mahrum qilishga qaratilgan jismoniy ta'sirdir.

Subyektning tanlab sodir etgan qilmishi uni jinoiy javobgarlikdan ozod etmaydi hamda bu uchun u javobgarlikka tortilishi mumkin [11]. Fikrimizcha, jismoniy zo'rlikning mohiyati barcha adabiyotlarda deyarli o'xshash talqin qilingan.

Ruhiy majburlash deganda, shaxsni o'ldirish, jismoniy zo'rlash yoki uning hayotiy manfaatlarini buzish bilan qo'rqitib, jinoyat sodir etishga undash tushuniladi.

Shulardan kelib chiqib, shaxsga nisbatan yetkazilgan jismoniy va ruhiy zo'rlikka ilmiy-nazariy va doktorinal ta'rif berilishi lozim. Uni faqat jismoniy zarar yetkazish bilan qo'rqitish mumkin emas. Ruhiy zo'rlik va jismoniy zo'rlik bir-birini to'ldiradi va ana shundan so'nggina oqibat kelib chiqishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ruhiy zo'rlikka quyidagicha ta'rif berish mumkin: *"Ruhiy zo'rlik – bu jabrlanuvchini sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etish, sog'lig'iga shikast yetkazish, mulkini nobud qilish yoki jinoiy harakatlarni sodir etishga majburlash maqsadida qo'rqitish va zo'rlik ishlatishdir".*

Y.M. Antonyan ruhiy zo'rlikni ikki asosiy guruhga bo'lib, birinchi guruhga – jabrlanuvchilar, ularga yaqin yoki boshqa shaxslar hayoti va sog'lig'iga qilingan tahdidlar, ikkinchi guruhga esa do'q-po'pisa qilish va tovlamachilik paytidagi ijtimoiy xavfi kamroq bo'lgan tahdidlarni kiritadi. Muallif tomonidan ruhiy va jismoniy zo'rlik bilan birga, zo'rlikning uchinchi turining kashf etilishi yanada munozaralidir. Uning fikricha, bu guruhni birinchi va ikkinchi guruhlarga kiritib bo'lmaydi. Bu guruh mutlaqo mustaqil sanalib, bunga "intellektual" zo'rlik kiradi. Uning boshqa guruhlardan farqli belgisi shundaki, u mansabdor shaxslar tomonidan muayyan hujjatni rasmiylashtirish, ya'ni zo'rlikning noan'anaviy usullari bilan sodir etiladi [12].

Muallifning bu fikriga qo'shila olmaymiz, chunki bu zo'rlikning turi emas, balki uning shakllaridan biridir. Mansabdor shaxs fuqarolarning huquqini buzib, uning ruhiyatini jarohatlaydi. Zo'rlikning ushbu turi amaliyotda juda kam uchraydi.

Bizga ma'lumki, ruhiy zo'rlik ishonarli, aniq, bevosita va yetarli darajada jiddiy bo'lishi lozim.

Ruhiy zo'rlikning ishonarliligini aniqlashda subyektiv (jabrlanuvchining idrok etishi) hamda obyektiv mezonlarni inobatga olish lozim. Ruhiy zo'rlikning obyektivligi: 1) ifodalanish usuli; 2) aybdor va jabrlanuvchining o'zaro munosabatlari, ular o'rtasidagi sovuq munosabat, janjal, dushmanlik va boshqalarning mavjudligi; 3) aybdorning ilgarigi xulq-atvori va shaxsiyati bilan izohlanadi. Mazkur omillarni inobatga olish jabrlanuvchida uning xavfsirashi uchun yetarli asos bo'lganligi, ya'ni subyektiv mezonning mavjudligidan guvohlik beradi.

Ruhiy zo'rlikning aniqligi deganda, shuni tushunish lozimki, bunda zo'rlik ishlatuvchi jabrlanuvchiga nisbatan qanday zo'rlik harakatlarini amalga oshirishini aniq ifodalaydi. Masalan, og'ir darajada shikast yetkazish bilan qo'rqitish.

Ruhiy zo'rlikning bevositalik xarakteri va uni o'sha vaqtning o'zida amalga oshirish imkoniyati jabrlanuvchini noilojlik holatiga solib qo'yadi, o'ziga yoki boshqalarga nisbatan zudlik bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan jismoniy zo'rlikning oldini olish uchun zo'rlik ishlatuvchining talablariga rozi bo'lishiga sabab bo'ladi.

Ruhiy va jismoniy zo'rlik nafaqat jabrlanuvchiga, balki boshqa shaxslarga, masalan, ayolni zo'rlik ishlatishdan himoya qilishga urinayotgan yoki boshqalarni yordamga chaqirayotgan shaxslarga nisbatan ham ishlatilishi mumkin. Biroq bu holatda zo'rlikning maqsadini aniqlash juda muhimdir. Agar boshqa shaxsga nisbatan ishlatilayotgan zo'rlikning maqsadi bevosita jinoyat qurbonining qarshiligini sindirish va shu yo'l bilan uning jinsiy aloqa qilishga roziligini olishga qaratilgan bo'lsa, aybdor qilmishining kvalifikatsiyasi to'laligicha Jinoyat kodeksi 118-moddasi asosida amalga oshiriladi. Agar boshqa shaxsga nisbatan ishlatilgan zo'rlikning maqsadi guvohlar yoki jabrlanuvchining himoyachilarini bartaraf etishga qaratilgan bo'lsa, bunday holatda aybdorning qilmishi sog'liq va hayotga qarshi qaratilgan jinoyatlarga jazo belgilovchi moddalardan biri asosida ham kvalifikatsiya qilinishi lozim. Ya'ni shaxsni bunday tarzda o'ldirish JKning 97-moddasi 2-qismi "o" bandi asosida, boshqa bir jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida odam o'ldirish bilan ham kvalifikatsiya qilinadi.

Yuqorida ko'rsatilgan zo'rlik alomatlari, albatta, jinsiy aloqa qilishga qaratilgan bo'lishi lozim. Maqsad – jabrlanuvchining qarshiligini sindirish va uning xohishiga qarshi jinsiy aloqa qilish.

Shunday qilib, jismoniy va ruhiy zo'rlik uchun quyidagi holatlar xarakterli hisoblanadi:

*birinchidan,* zo'rlik ishlatuvchi jinsiy aloqa qilish maqsadida zo'rlik harakatlarini sodir etadi, bu jinoyat qurbonining qarshiligini sindirish vositasi hisoblanadi. Shu sababli faqat qasddan sodir etiladi;

*ikkinchidan,* zo'rlik jabrlanuvchining qarshiligi va bu qarshilikning davom etishini bartaraf etish maqsadida qo'llanadi;

*uchinchidan,* zo'rlik harakatlari jabrlanuvchini noilojlik holatiga solib qo'yadi. Qator hollarda u zo'rlikning xavfliligi va qarshilik ko'rsatishning foydasizligini anglagan holda qarshilik ko'rsatmasligi mumkin. Biroq bu jabrlanuvchining jinsiy aloqa qilishga roziligini bildirmaydi, balki o'zini himoya qilish maqsadida jinoyatchiga yo'l berishga majbur bo'lishidir;

*to'rtinchidan,* zo'rlik jabrlanuvchining o'ziga yoki alohida hollarda uning yaqin kishilariga yoxud boshqa shaxslarga nisbatan ishlatiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, Jinoyat kodeksining 118-, 119-moddalari birinchi qismida ko'rsatilgan zo'rlikni amalga oshirish shakllaridan biri ruhiy zo'rlik o'zida qo'rqitishni ham ifodalaydi.

Qo'rqitish ham jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilari (bolalari, ota-onalari, qallig'i

va boshqa yaqin qarindoshlari) manfaatlariga ziyon yetkazishga qaratilgan boʻlishi mumkin. Jinoyat kodeksida nomusga tegish jinoyatini sodir etish usuli sifatida ham zoʻrlik, ham qoʻrqitishning berilishi mantiqiy jihatdan takrorlanish boʻlib qolgan.

Shunday ekan, JKning 118-moddasi birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsa, maqsadga muvofiq: "Nomusga tegish – zoʻrlik ishlatib yoki jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib jinsiy aloqa qilish".

Ayblanuvchining xohishiga qarshi jinsiy aloqa qilish jabrlanuvchining ojizligidan, ya'ni unga nisbatan sodir etilayotgan qilmishni anglab yetmasligi yoki qarshilik koʻrsata olmasligidan foydalanib nomusga tegishni ham oʻz ichiga oladi.

Ojiz holatdagi shaxs deganda, organizmning oʻziga xos alohida holatiga koʻra, jinoiy tajovuzga qarshilik koʻrsata olmaydigan yoki oʻzini oʻzi himoya qilish, tajovuzdan saqlash uchun u yoki bu choralarni koʻrishga imkoniyati boʻlmagan shaxs tushuniladi.

Ojiz ahvol – bu jabrlanuvchining shunday jismoniy va ruhiy holatidir. Bu holatda u oʻziga nisbatan sodir etilayotgan harakatning xarakteri va ahamiyatini anglamaydi yoki anglagan holda ham aybdorga nisbatan qarshilik koʻrsata olmaydigan vaziyatda boʻladi.

Boshqacha qilib aytganda, ojizlik jabrlanuvchining jismoniy yoki ruhiy nochorligi tufayli jinoyatchi shaxs tomonidan oʻzining hayotiga qilinayotgan tajovuzni qaytara olmasligidir.

Shaxsning ojizlik holatiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– *jabrlanuvchining patologik holati bilan belgilanadigan jismoniy ojizligi.* Bu jinoiy tajovuzlarga qarshilik koʻrsatish imkoniyatini kamaytiruvchi har qanday kasallik, insonning jismoniy holatiga salbiy ta'sir koʻrsatuvchi turli jarohatlar boʻlishi mumkin (yuqori harorat, behushlik, jismoniy zaiflik va shu kabilar);

– *Ruhiy faoliyatning buzilganligi bilan bogʻlik ojizlik.* Alkogol yoki giyohvandlik vositalari ta'sirida kelib chiqadigan mastlik holati yoki psixotrop yoki boshqa moddalar ta'sirida kelib chiqqan aqliy-irodaviy faoliyatning buzilishi [13].

Ba'zi olimlar jabrlanuvchining ruhiy ojizligini uning anglashi yoki holati oʻzgarishiga sabab boʻlgan ruhiy jihatdan rivojlanmaganligi bilan bogʻlaydi. Boshqa olimlarning fikriga koʻra esa jinoyat qurbonining oʻziga nisbatan sodir etilayotgan qilmishning xarakteri va ahamiyatini anglab yetmasligi hamda qarshilik koʻrsata olmasligini kengroq talqin qilish lozim. Ular jabrlanuvchiga nisbatan sodir etilayotgan qilmishning ahamiyati va xarakterini anglab yetmasligi yoki hushini yoʻqotib qoʻygani holatidagi ruhiy ojiz ahvolinigina emas, qoʻrqib ketishi, emotsional shok holatga tushib qolishi, aldanishi kabi holatlarni ham shaxsning ojiz ahvoliga kiritadi.

Bu fikr tarafdorlari majburlash usullariga mos keluvchi formal tarkibning boʻlishi lozimligini ta'kidlaydi. Jismoniy zoʻrlik qat'iy va intensiv xarakterli, qoʻrqitish bevosita va aniq boʻlishi kerak. Faqat shu holdagina zoʻrlik haqiqiy, qoʻrqitish esa jiddiy va real boʻlganligi haqida gapirish mumkin.

"Ojiz ahvoldagi holat" tushunchasiga nisbatan turli xil yondashish, uni ikki tomonlama talqin qilish imkoniyati huquqni qoʻllash amaliyotida qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Jabrlanuvchining ojiz ahvoldagi holatini keng ma'noda tushunib, bu holatning irodaviy belgisini oʻzining xohishini ifodalay olmaslik sifatida talqin qiladiganlar uning psixologik mazmunini oʻrganishga harakat qiladi. Ular tomonidan keltirilgan ba'zi ruhiy ojizlik holatlari (qoʻrqish, vaziyatning murakkabligi, aldash) jabrlanuvchining yuzaga kelgan kriminal vaziyatda ongli va mustaqil tarzda, shuningdek, oʻz xohishiga asoslanib, ta'sirsiz harakat qila olish imkoniyatini yoʻqotganligini koʻrsatadi.

Ruhiy jihatdan ojizlik holatini aniqlash har doim ham oson emas. Bu holatni aniqlash uchun nafaqat psixiatrlar, shuningdek, ekspert-psixologlar ham jalb qilinishi lozim.

Bundan jinoyat qurbonining ruhiy ojiz ahvolini aniqlashda ekspert jabrlanuvchining harakatlarini to'liq tahlil qilar ekan, bu jarayonda quyidagi to'rtta holatni aniqlashi kerak:

– jabrlanuvchining hodisaning ichki holatini tushunmasligi;

– vaziyatni ilojsiz holat deb baholashi;

– qarshilik ko'rsatishning samarasiz usulini tanlashi;

– harakatni bajaruvchi a'zolarini ruhiy jihatdan boshqarish imkoniyatiga ega emasligi.

Ruhiy faoliyatning buzilishidan ham ruhiy ojizlik holati kelib chiqadi. Bunga surunkali ruhiy kasallanish, ruhiyatning vaqtincha buzilishi yoxud jabrlanuvchining aqli norasoligi, voyaga yetmaganligi va hokazolar bois o'zi bilan sodir etilayotgan voqeani anglab yetmaslik holatlari va boshqalar kiradi. Ruhiy kasallik, shubhasiz, bir qator holatlarda jabrlanuvchining jinoyatchi foydalanishi mumkin bo'lgan ojizligini vujudga keltiradi.

Ba'zi bir mualliflar har qanday ruhiy kasal shaxs bilan jinsiy aloqa qilishni ojiz ahvoldagi shaxs bilan jinsiy aloqa qilish deb hisoblaydi. Lekin shunday ruhiy kasalliklar borki, bunda shaxs o'ziga nisbatan sodir etilayotgan qilmishni anglab yetadi. Bunday hollarda uni ojiz ahvoldagi shaxs deb hisoblash uchun asos bo'lmaydi.

Ruhiy kasal bilan qilingan jinsiy aloqa unga nisbatan jismoniy zo'rlik ishlatib yoki qo'rqitib sodir etilgan bo'lsa, shaxsning ojiz holatidan foydalanish mavjud bo'lmaydi, balki bu yerda oddiy zo'rlik ishlatib jinsiy aloqa sodir qilish mavjud bo'ladi.

Jinoyat-huquqiy va fuqarolik-huquqiy mazmunda ham har qanday ruhiy kasallarning harakati emas, balki aqliy va irodaviy qobiliyatlariga jiddiy ravishda shikast yetgan kishilar, ya'ni aqli norasolarning harakatlari yuridik ahamiyatsizdir.

Ruhiy kasal bilan zo'rlik ishlatib jinsiy aloqa qilganlik holatini faqat aybdor jabrlanuvchining ruhiy kasalligini bilgan va o'zining jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun uning sodir bo'layotgan hodisani to'g'ri anglash yoki baholashga noqobilligidan ongli ravishda foydalangan holdagina jabrlanuvchining ojiz holatidan foydalanib jinsiy zo'ravonlik qilish deb kvalifikatsiya qilish mumkin.

Unga nisbatan sodir etilayotgan qilmishning xarakteri va ahamiyatini anglab yeta olmaydigan hamda zo'rlik ishlatuvchi shaxsga nisbatan qarshilik ko'rsatishga qodir bo'lmagan 14 yoshgacha bo'lgan shaxslar ojiz ahvoldagi shaxs hisoblanadi. Lekin shunday holatlar mavjud bo'ladiki, shaxs yoshiga nisbatan ham jismoniy, ham jinsiy jihatdan ancha rivojlangan bo'ladi. Bunday hollarda u bilan jinsiy aloqa qilinganda, ayblanuvchi uning voyaga yetmaganligini bilmasa va jabrlanuvchi uning harakatlariga qarshilik ko'rsatmasa, bunday holda nomusga tegish jinoyati alomatlari mavjud bo'lmaydi.

Ojiz ahvoldagi shaxs bilan jinsiy aloqa qilish zo'rlik ishlatilmasdan, lekin uning ixtiyoridan tashqari aybdor tomonidan buni anglagan holda sodir etiladi.

Voyaga yetmagan shaxsning ojiz ahvoldaligi haqida gapirganda, uning aqliy rivojlanganlik darajasi, jinsiy aloqani baholay olishi muhim ahamiyatga ega ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. O'ziga nisbatan sodir etilayotgan qilmishning ahamiyati va xarakterini anglab yetsa-da, lekin qat'iyatlilik xususiyatining rivojlanmaganligi, jismonan zaifligi, qo'rqoqligi, kattalar tomonidan bo'ladigan qo'pol munosabatlarga nisbatan qarshilik ko'rsatish imkoniyatining yo'qligi uni ojiz ahvoldagi shaxs deb hisoblashga asos bo'ladi. Shunday holatlar mavjudki, tajribasiz voyaga yetmagan qizlar tajovuz qiluvchining qat'iy harakatlariga qarshilik ko'rsata olmaydi, uning irodasiga bo'ysunadi, ruhiy holatda bo'ladi. Bunday holatda jabrlanuvchi psixologik-ekspertiza xulosasi asosida ojiz ahvolda deb topilishi mumkin.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, oxirgi vaqtda fanda "ojizlik holati" va "hushsiz holat" tushunchalarini farqlash tendensiyalari uchramoqda. Bunda odam o'ldirishga nis-

batan hushsizlik holati ojiz ahvol deb topilmaydi [14].

Bunday yondashuv bo'yicha ojiz ahvol deganda, jabrlanuvchi bo'layotgan voqealarni biladi, biroq bunga nisbatan chora ko'ra olmaydi yoki yordamga chaqira olmaydi; hushsiz holatda esa o'ziga nisbatan sodir qilinayotgan qilmishni anglamaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 13-sonli qarorining 8-bandida "Ojiz ahvol deb jabrlanuvchining fiziologik, jismoniy yoki ruhiy jihatdan (jismoniy nuqsonlari, ruhiyati buzilganligi, juda yosh yoki keksaligi, qattiq og'riq yoki behush holatda yoxud uyquda bo'lganligi, alkogol, giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda ta'sirida og'ir darajada mastligi tufayli) o'zini himoya qilishga, aybdorga faol qarshilik ko'rsatishga qodir emaslik yoki o'ziga nisbatan sodir etilayotgan harakatlarning xususiyati va mohiyatini tushuna olmaslik yoxud o'z harakatlarini boshqara olmaslik holati tushunilishi kerak. Bunda aybdor jabrlanuvchi ojiz ahvolda ekanligini anglagan bo'lishi shart", deb berilgan.

Mastlik holatidagi shaxs bilan jinsiy aloqa qilish nomusga tegish deb topiladimi yoki yo'qmi, degan haqli savol tug'iladi.

Jabrlanuvchi atrofdagi vaziyatni anglab yetmaydigan darajada alkogol yoki giyohvandlikdan mast bo'lsa, u ojiz ahvolda bo'lgan deb tan olinadi. Bunda jabrlanuvchini kim bu ahvolga duchor etganligi ahamiyatga ega emas.

Mastlik holati har xil bo'lishi mumkin: oddiy mastlik, patologik mastlik kabi. Olimlar fikriga ko'ra, patologik mastlik holati shaxsni ojiz ahvolda deb hisoblash uchun asos bo'ladi. Patologik mastlik spirtli ichimlikdan keyin qisqa muddat o'tkir psixozning boshlanishidir. Bunday holda odamning qancha spirtli ichimlik ichganligi ahamiyatga ega emas. Ba'zida ozgina spirtli ichimlik ichganda ham bu holat yuzaga kelishi mumkin. Patologik mastlik holati ko'proq shaxs charchaganda, kam uxlaganda, och bo'lgan paytida, bosh miya jarohatlanganda, epilepsiya holatida kuzatiladi.

Bunday holatda shaxs ongi buziladi. Unda qo'rquv va vahima paydo bo'ladi, o'ziga nisbatan sodir etilayotgan harakatning ahamiyatini anglab yetmaydi. Patologik mastlik holatining quyidagi ikki turi bor: epileptoid va paramoid.

Epileptoid turida mast odamning ongi buziladi, qo'zg'aluvchan bo'lib qoladi, baqiradi, uxlab qoladi, o'ziga nisbatan sodir etilgan harakatlarni eslay olmaydi.

Paranoid turida vasvasa paydo bo'lib, turli buyruqlar beradi, o'z harakatini boshqara olmaydi [15].

Ushbu holatda shaxs aqli noraso hisoblanadi. Bunday mastlik holati shaxs hayotida bir marotaba kuzatilishi mumkin.

Angren shahar sudida 2019-yil ko'rilgan jinoyat ishiga ko'ra, Sh. va uning tanishi G. birga tug'ilgan kun nishonlashgan va spirtli ichimlik iste'mol qilishgan. Natijada G. o'zini bilmaydigan darajada mast bo'lib qolgan. Sh. bu vaziyatdan foydalanib, uning nomusiga teggan. G. esa hech qanday qarshilik ko'rsatmagan. O'tkazilgan ekspertiza natijasiga ko'ra, G. o'sha kuni patologik mast holatda bo'lgan va Sh.ning qilmishi JKning 118-moddasi 1-qismi bilan ojiz ahvoldagi shaxsning nomusiga tegish deb kvalifikatsiya qilindi.

Demak, mastlik holatining faqat bir turida – patologik mastlik holatida shaxs ojiz ahvolda bo'ladi. U bilan jinsiy aloqa qilish jinoiy javobgarlikka asos bo'lishi mumkin.

Jismoniy ojizlik ruhiy ojizlik kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu holatni aniqlash tergov-sud amaliyotida qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu, odatda, jabrlanuvchining kasalligi (tana haroratining yuqoriligi, paralich bo'lib qolganligi) yoki nogironligi, qo'li yoki oyog'ining yo'qligi kabi jismoniy kamchiliklar hamda keksaligi kabi holatlar bilan bog'liq. Shu bilan birga, jismoniy ojizlik holati sog'lom kishida aybdor foydalanishiga sabab bo'lgan to'satdan

yuzaga kelgan vaziyat tufayli ham kelib chiqishi mumkin.

Jismoniy ojizlik holatini baholash uchun quyidagi ikki belgiga e'tibor qaratish lozim:

– jabrlanuvchining oʻziga nisbatan sodir etilayotgan zoʻrlikka nisbatan qarshilik koʻrsatish imkoniyatiga ega emasligi;

– jabrlanuvchining oʻziga nisbatan sodir etilayotgan qilmishning ijtimoiy xavfliligini anglab yetishi.

Jismoniy ojizlik holatini quyidagi guruhlarga boʻlish mumkin:

a) tugʻma jismoniy ojizlik. Bunga shaxsning tugʻma koʻr boʻlishi, oyogʻi yoki qoʻlining yoʻqligi yoki ishlamasligi kabilarni kiritish mumkin;

b) hayot davomida vujudga kelgan yoki orttirilgan jismoniy ojizlik holati.

Qonunga asosan, keksalar ojiz ahvoldagi shaxslar jumlasiga kiritilgan (JK 56-modda 1-qismining "b" bandi). Kishilar yosh fiziologiyasiga koʻra, yosh qaytgan davr (erkaklar 61–74 yoshlarda, ayollar 56–74 yoshlarda), qariyalik davri (75–90 yoshlar) va uzoq umr koʻrganlarga boʻlinadi [16].

Psixologlar, odatda, qariyalarni uzoq umr koʻrganlar deb hisoblaydi [13].

Shuningdek, shaxsning yoshini yana ikkiga boʻlish mumkin. *Birinchisi* – shaxsning yuridik yoshi, ya'ni uning shaxsini tasdiqlovchi hujjatida qayd etilgan tugʻilish paytidan kelib chiqib hisoblanadigan yoshi.

*Ikkinchisi* – shaxsning jismoniy jihatdan hisobga olinadigan yoshi. Masalan, ba'zi shaxslar oʻzining haqiqiy yoshiga nisbatan ancha yosh koʻrinadi hamda jismoniy jihatdan oʻziga nisbatan sodir etilayotgan zoʻrlikka qarshilik koʻrsatish imkoniyatiga ega boʻladi. Bunday hollarda ushbu shaxslarni ojiz ahvoldagi shaxs deb hisoblab boʻlmaydi. Chunki ular oʻziga nisbatan sodir etilayotgan zoʻrlikni bartaraf etish imkoniyatiga ega boʻladi.

Keyingi paytlarda fanda "ojizlik holati" va "hushidan ketganlik holati"ni farqlovchi tendensiyalarning vujudga kelganligini koʻrish mumkin. Shuning uchun hushidan ketgan shaxs oʻldirilganda, jinoyat qurboni ojiz ahvoldagi shaxs deb hisoblanmaydi. Ojizlik holatiga bunday yondashishda shunday holat tushuniladiki, bunda jabrlanuvchi sodir boʻlayotgan holatlarni anglaydi, biroq himoya choralarini koʻrish imkoniyatiga ega boʻlmaydi yoki yordamga chaqira olmaydi; hushidan ketish holatida esa jabrlanuvchi oʻziga nisbatan sodir etilayotgan harakatlarini anglab yetmaydi. Lekin bunday qarama-qarshi holatlar yetarli asosga ega emas. Ojizlik holatini nomusga tegish jinoyatiga nisbatan bunday talqin qilish balogʻatga yetmaganlar huquqiy kafolatining kamsitilishiga olib keladi. Bizning fikrimizcha, agar jinoyatni sodir etish jarayoni bu holatdan foydalanishni taqozo etsa, ojizlik holati sababi va xarakteri (psixologik va jismoniy) ahamiyatga ega emas. Shaxsning ojizlik holati aynan nomusga tegish jinoyatini sodir etish uchun ishlatilgan boʻlishi lozim.

Jinoyat kodeksining 118-moddasida belgilangan ojiz ahvolda boʻlganlik sababi ahamiyatga ega emas. Biroq uni aybdor keyin nomusiga tegish maqsadida shunday ahvolga solib qoʻygan yoki (uning iltimosi bilan) subyektning jinoiy maqsadini bilgan holda, boshqa shaxs tomonidan shu ahvolga solib qoʻyilgan boʻlsa, bunday holda ushbu dastlabki harakatlarga toʻgʻri huquqiy baho berish zarur. Agar bu harakatlarda mustaqil jinoyat tarkibi mavjud boʻlsa, aybdorning qilmishi JKning 118-moddasidan tashqari, dastlab sodir etgan qilmishi uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksidagi boshqa moddalar bilan ham kvalifikatsiya qilinishi kerak. Masalan, nomusga tegish maqsadida voyaga yetmagan shaxsni doimiy ravishda spirtli ichimliklar ichishga jalb qilish Jinoyat kodeksining 127- va 118-moddalari bilan birga kvalifikatsiya qilinishi lozim.

**Xulosalar**

Jinsiy jinoyatlar obyektiv belgilarining tahlil qilinishi yuzasidan quyidagicha taklif va tavsiyalar beramiz.

*Birinchidan,* zoʻrlik alomatlari, albatta, jinsiy aloqa qilishga qaratilgan boʻlishi hamda

maqsad – jabrlanuvchining qarshiligini sindirish va uning xohishiga qarshi jinsiy aloqa qilish ekanligi e'tiborga olinib, jismoniy va ruhiy zo'rlik uchun quyidagi holatlar xarakterlidir:

– zo'rlik ishlatuvchi jinsiy aloqa qilish maqsadida zo'rlik harakatlarini sodir etadi, bu jinoyat qurbonining qarshiligini sindirish vositasi hisoblanadi. Shu sababli faqat qasddan sodir etiladi;

– zo'rlik jabrlanuvchining qarshiligi va bu qarshilik davom etishini bartaraf etish maqsadida qo'llanadi;

– zo'rlik harakatlari jabrlanuvchini noilojlik holatiga solib qo'yadi. Qator hollarda u zo'rlikning xavfliligi va qarshilik ko'rsatishning foydasizligini anglagan holda, qarshilik ko'rsatmasligi mumkin. Biroq bu jabrlanuvchining jinsiy aloqa qilishga roziligini bildirmaydi, balki o'zini himoya qilish maqsadida jinoyatchiga yo'l berishga majbur bo'lishi hisoblanadi;

– zo'rlik jabrlanuvchining o'ziga yoki alohida hollarda uning yaqin kishilariga yoxud boshqa shaxslarga nisbatan ishlatiladi.

*Ikkinchidan,* nomusga tegish jinoyati faqat tabiiy jinsiy aloqani o'z ichiga oladi, ya'ni qarama-qarshi jinsdagi shaxslar o'rtasidagi jinsiy a'zolarning qo'shilishi bilan amalga oshiriladi.

Nomusga tegish jinoyati zo'rlik ishlatib (ruhiy va jismoniy zo'rlik), jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib (ruhiy va jismoniy ojizlik) sodir etiladi.

*Uchinchidan,* JKning 118-moddasi birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsa, maqsadga muvofiqdir: "*Nomusga tegish – zo'rlik ishlatib yoki jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib jinsiy aloqa qilish*".

*To'rtinchidan,* Jinoyat kodeksining Maxsus qismi sakkizinchi bo'limida qariyalik holati aniq ko'rsatilishi kerak. Kodeksda "60 yoshdan oshgan erkaklar, 55 yoshdan oshgan ayollar va shu sababdan yuzaga kelgan jismoniy va (yoki) ruhiy holatiga ko'ra o'ziga nisbatan sodir etilayotgan zo'rlikka nisbatan qarshilik ko'rsata olmaydigan shaxslar qariyalar hisoblanadi", deb berilishini taklif etamiz.

## REFERENCES

1. Andreeva L.A. O kharaktere prinuzhdeniya pri iznasilovanii [On the Nature of Coercion in Rape]. *Jurisprudence,* 1960, vol. 2, p. 154.

2. Vasilev I.M. Prestupleniya protiv lichnochti [Crimes against the Person]. 1992, p. 50.

3. Krasnyuk K.P. Nasil'stvennyye seksual'nyye posyagatel'stva na lits, ne dostigshikh cheyrnadtsatiletnego vozrasta [Violent Sexual Assault on Persons Under the Age of Fourteen]. Moscow, 1999, p. 13.

4. Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism [The Code of Legal Affairs of the Republic of Uzbekistan. Legislation of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Legal Publ., 2021, pp. 120–121.

5. Taxirov F. Shaxsga karshi jinoyatlar [Crimes against the person]. Generation of the new age Publ., 2001, p. 86.

6. Ignatov A.N. Otvetsvenost' za prestupleniya protivopravnosti (polovyye prestupleniya) [Responsibility for crimes of illegality (sex crimes)]. Moscow, 1996, pp. 10–11.

7. Taxirov F. Tajovuz [Aggression]. *Life and Law,* 2002, vol. 1, p. 48.

8. Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasining jinoyat huquqi kursi. T.3. [Criminal law course of the Republic of Uzbekistan]. Vol. 3. Crimes against the person. Crimes against peace and security. Tashkent, ILM ZIYA Publ., 2011, p. 62.

9. Yulchiyev A., Aslanov M. Odamlar savdosi (traffigi)ga qarshi kurashning huquqiy jihatlari [Legal aspects of combating human trafficking]. Tashkent, TSIL Publ., 2006, p. 84.

10. National database of legal documents, 2019. Avialable at: http://lex.uz

11. Yakubov A.S., Kabulov R. Jinoyat huquqi. Umumiy qism [Criminal law. General part]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2009, p. 134.

12. Antonyan Yu.M. Prestupnaya zhestokost' [Criminal cruelty]. Moscow, 1994, pp. 54–55.

13. Qodirov A. Jazoni og'irlashtiruvchi holatlar [Aggravating circumstances]. Tashkent, Adolat Publ., 1998, p. 48.

14. Karganov B.G. Sanktsii pristupleniya protiv zhizni i zdorov'ya [Sanctions against life and health]. Krasnodar, 1999, pp. 21–22.

15. Shamsiev S. Sudebnaya meditsina [Forensic medicine]. Tashkent, 2002, p. 221.

16. Kommentaryy k UK. RF [Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation]. Leningrad, 1996, p. 100.

17. Qodirov A. Jazoni og'irlashtiruvchi holatlar [Aggravating circumstances]. Tashkent, Adolat Publ., 1998, p. 48.

# YURISPRUDENSIYA

**HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI**

**2024-YIL 6-SON**

VOLUME 4 / ISSUE 6 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.6.